


**BUXORO VILOYATINING
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-iyun*)

2019-yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 634,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 32,6 % ga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 151,1 mln. AQSH dollarga (o`sish sur`ati 48,3 %) va import hajmi 483,2 mln. AQSH dollariga (o`sish sur`ati 28,3 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 332,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

**Buxoro viloyatining
tashqi savdo aylanmasi**

(mln.AQSH.dollari, ulushi %)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 49,2 mln. AQSH dollarga ko`proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 mln. AQSH dollariga ko`proqdir.

*dastlabki ma`lumot

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega bo`lgan 20 ta davlat**

(2019 yil yanvar-iyun)


(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Turkmaniston	143,9	2,7	141,3	22,7	2,8 b
Rossiya	141,3	14,1	127,2	22,3	65,2
Xitoy	111,5	22,7	88,7	17,6	163,3
Eron	51,9	34,0	17,9	8,2	98,8
Afgoniston	27,7	27,6	0,1	4,4	13,5 b
Turkiya	26,3	2,6	23,7	4,1	2,9 b
Qozog`iston	24,7	15,2	9,5	3,9	146,6
Koreya	20,1	0,2	19,9	3,2	6,4 b
Qirg`iziston	19,7	19,6	0,1	3,1	9,1 b
Germaniya	18,4	0,0	18,4	2,9	191,6
Ukraina	7,2	1,5	5,7	1,1	130,2
AQSH	6,9	0,1	6,8	1,1	37,5 b
Latviya	4,0	0,1	3,9	0,6	33,4
Belgiya	3,6	0,0	3,6	0,6	174,7
Litva	3,0	0,3	2,7	0,5	2,6 b
Pol'sha	2,5	0,9	1,6	0,4	4,6 b
Belarus	2,3	0,2	2,1	0,4	31,3
Arabiston	2,0	0,6	1,4	0,3	103,3
Niderlandiya	1,4	0,0	1,4	0,2	9,8 b
Pokiston	1,3	0,2	1,1	0,2	46,4

2019-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo`yicha tovarlar eksporti bilan shug`ullanuvchi korxonalar soni o`tgan yilning mos davriga nisbatan 39 taga ko`payib, 209 taga yetdi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi

(yanvar- iyun, mln. AQSH dollar)




■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma`lumotlar ko`rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o`sganligini ko`rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-iyun oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o`tgan yillarga nisbatan ko`payib, 151,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, %


(yanvar-iyun)



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-iyun oylari tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,8 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,4 % tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi

(yanvar-iyun, mln.AQSH.dollari)

**MDH davlatlari****Boshqa davlatlar**

Boshqa xorijiy davlatlarning, viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-iyun oylari 37,1% ni tashkil qilgan bo`lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 46,2 % ga yetdi. O`tgan yilning mos davriga nisbatan 165,1 % ga o`sdi.

**Buxoro viloyatining
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(mln. AQSH dollar)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- iyun	2018-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun
Turkmaniston	49,6	50,9	144,0
eksport	1,8	0,9	2,7
import	47,8	50,0	141,3
saldo	-46,0	-49,1	-138,6
Rossiya	197,1	216,9	141,3
eksport	9,0	9,9	14,1
import	188,1	207,0	127,2
saldo	-179,1	-197,1	-113,1
Xitoy	15,8	68,3	111,4
eksport	6,9	18,6	22,7
import	8,9	49,7	88,7
saldo	-2,0	-31,1	-66,0
Turkiya	4,2	9,2	26,3
eksport	2,0	0,9	2,6
import	2,2	8,3	23,7
saldo	-0,2	-7,4	-21,1
Koreya	1,4	3,1	20,1
eksport	0,1	0,4	0,2
import	1,3	2,7	19,9

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- iyun	2018-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun
saldo	-1,2	-2,3	-19,7
Germaniya	7,6	9,6	18,4
eksport	-	0,1	-
import	7,6	9,5	18,4
saldo	7,6	-9,4	-18,4
Eron	35,1	52,5	51,9
eksport	33,7	48,4	34,0
import	1,4	4,1	17,9
saldo	32,3	44,3	16,1
Qozog'iston	20,3	16,9	24,7
eksport	17,1	9,4	15,2
import	3,2	7,5	9,5
saldo	13,9	1,9	5,7
AQSH	-	0,2	6,9
eksport	-	0,1	0,1
import	-	0,1	6,8
saldo	-	-	-6,7
Ukraina	1,8	5,5	7,2
eksport	0,6	0,5	1,5
import	1,2	5,0	5,7

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- iyun	2018-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun
saldo	-0,6	-4,5	-4,2
Latviya	4,6	11,9	4,0
eksport	1,0	-	0,1
import	3,6	11,9	3,9
saldo	-2,6	11,9	-3,8
Belgiya	0,3	2,1	3,6
eksport	-	-	-
import	0,3	2,1	3,6
saldo	0,3	2,1	-3,6
Litva	0,5	1,2	3,0
eksport	0,2	0,4	0,3
import	0,3	0,8	2,7
saldo	-0,1	-0,4	-2,4
Belarus	2,2	7,4	2,3
eksport	-	0,2	0,2
import	2,2	7,2	2,1
saldo	2,2	-7,0	-1,9
Pol'sha	0,2	0,6	2,5
eksport	0,1	0,4	0,9
import	0,1	0,2	1,6

(mln. AQSH dolları)


Davlat nomi	2017-yil yanvar- iyun	2018-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun
saldo	-	0,2	-0,7
Niderlandiya	0,1	0,1	1,4
eksport	-	-	-
import	0,1	0,1	1,4
saldo	-0,1	-0,1	-1,4
Arab amirligi	0,5	1,9	2,0
eksport	0,1	1,7	0,6
import	0,4	0,2	1,4
saldo	-0,3	1,5	-0,8
Afg'oniston	21,9	2,1	27,7
eksport	21,8	2,0	27,6
import	0,1	0,1	0,1
saldo	21,7	1,9	27,5
Qирг'изистон	0,6	2,2	19,7
eksport	0,6	1,9	19,6
import	-	0,3	0,1
saldo	0,6	1,6	19,5
Pokiston	0,2	2,8	1,3
eksport	0,2	0,3	0,2
import	-	2,5	1,1
saldo	0,2	-2,2	-0,9

EKSPORT

2019-yil yanvar-iyun oyida eksport hajmi 151,1 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 48,3 %) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 93,7 % ulushga ega bo`lib, bular asosan to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (44,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari (22,4 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (19,9 %), ni tashkil qiladi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi ulushi

(yanvar-iyun, % da)



2019-yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobarga o'sish o`zgarishlari qayd etildi, va 2019-yilning yanvar-iyun oyida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmida ayrim turdag'i tovar va xizmatlarda o'sish sur`atlari qayd etildi.

Eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-iyun)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Jami	151,1	148,3	100,0	55,0	2,4 b	100,0	96,1	122,6	100,0
Paxta tolasi	44,6	71,4	29,5	-	-	-	44,6	71,4	46,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	33,8	2,9 b	22,4	30,2	2,8 b	54,9	3,6	3,0 b	3,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,1	122,2	0,7	1,0	166,7	1,8	0,1	50,0	0,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	30,1	17,7 b	19,9	1,3	-	2,4	28,8	16,9 b	30,0
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,2	2,1 b	-	0,2	10,0 b	0,4	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda	1,9	-	-	0,05	-	0,1	1,9	19,0 b	2,0
Xizmatlar	9,6	111,6	6,4	4,6	-	8,4	4,9	-	5,1
Boshqalar	29,7	182,2	19,6	17,6	183,3	32,0	12,2	182,1	12,7


Eksport tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH. dollar)

Tarkibi	2015-yil yanvar-iyun	2016-yil yanvar-iyun	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Jami	152,4	130,6	119,1	101,9	151,1
Paxta tolasi	44,8	3,0	42,4	62,5	44,6
Oziq-ovqat mahsulotlar	6,1	14,8	22,9	11,8	33,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,5	0,7	1,4	0,9	1,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	12,9	28,2	24,3	1,7	30,1
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	0,1	0,2
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	1,2	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	0,03	0,04	-	-	1,9
Xizmatlar	46,3	46,9	9,8	8,6	9,6
Boshqalar	41,8	35,8	18,3	16,3	29,7


Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-iyun oylari mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,2 mln. AQSH dollariga ko`p eksport qilindi va 151,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 9,6 mln. AQSH dollarga yetgan.

**2019 yilda MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi %
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)**




**Viloyat eksportida asosiy hamkor
davlatlarning ulushi , %**

(yanvar-iyun)



Xizmatlar eksporti hajmi 9,6 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,4 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari transport xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`g`ri keladi.




Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-iyun oylarida jami 57,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 29,7 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati -3,1 b). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar- iyun oylari 51,7 ming tonna sabzavotlar 18,5 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,4 mln. AQSH dollarigan ko`p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 5,7 ming tonna meva va rezavorlar 11,2 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming tonnaga ko`pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

yanvar-iyun




Shuni aytib o`tish joizki, viloyatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o`zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda

sabzavotlar eksport hajmi 29,7 mln.AQSH dollariga yetdi (o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 b ga o`sgran).

Mustaqillikka erishgan ilk yillarda viloyatimiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom-ashyosi eksport qilingan bo`lsa, hozirda esa tayyor to`qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o`z o`rnini egallab kelmoqda.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyun oyida import hajmi 483,2 mln. AQSH dollariga (o`sish sur`ati 28,3 % ga) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbaalari (50,8 %), mashina uskunalari(27,6 %),kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,0%) hamda qora va rangli metallar (1,3 %) guruahlari hisobiga to`g`ri keldi.



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning yanvar-iyun oylari mobaynida viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 153,8 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 483,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Import tarkibi

(2019-yil yanvar-iyun)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyajmga nisbatan, %
Import	483,2	128,3	100,0	286,2	103,2	100,0	197,0	198,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,6	156,4	1,7	7,4	189,7	2,6	1,2	70,6	0,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	24,4	136,6	5,0	6,8	194,3	2,4	17,6	122,2	8,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	245,7	107,0	50,8	245,6	106,9	85,8	0,1	-	0,1
Qora metallar	5,9	72,8	0,1	3,8	50,7	1,3	2,1	3,5 b	1,1
Rangli metallar	0,3	-	1,2	0,2	-	0,1	0,1	100,0	0,1
Mashina va asbob-uskunalar	133,5	166,2	27,6	6,1	32,4	2,1	127,3	2,1 b	64,6
Xizmatlar	0,4	133,3	0,1	-	-	-	0,4	133,3	0,2
Boshqalar	64,3	186,9	13,3	16,2	115,7	5,7	48,1	2,4 b	24,4

Import tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH dollar)

Tarkib	2015-yil yanvar-iyun	2016-yil yanvar-iyun	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Jami	274,9	214,4	271,5	376,5	483,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	1,2	3,5	5,5	8,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	11,5	9,5	8,5	18,0	24,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	208,0	171,7	226,1	229,7	245,7
Qora metallar	4,9	3,3	3,7	8,1	5,9
Rangli metallar	-	-	-	0,1	0,3
Mashina va asbob- uskunalar	32,9	18,6	21,3	80,3	133,5
Xizmatlar	5,8	0,4	0,3	0,3	0,4
Boshqalar	6,4	9,7	8,0	34,4	64,3


Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-iyun oylari mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7 mln. AQSH dollariga kop import qilindi va 483,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,4 mln. AQSH dollarga yetgan.

**Buxoro viloyatida
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi
(yanvar-iyun)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollarri		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Turkmaniston	50,0	141,3	104,6	2,8 b	2	1
Rossiya	207,0	127,2	110,0	61,4	1	2
Xitoy	49,7	88,7	5,6 b	178,5	3	3
Turkiya	8,3	23,7	3,8 b	2,8 b	6	4
Kopea Respublikasi	2,7	19,9	2,1 b	7,4 b	11	5
Germaniya	9,5	18,3	125,0	192,6	5	6
Eron	4,1	17,9	2,9 b	4,4 b	10	7
Qozog'iston	7,5	9,5	2,3 b	126,7	7	8
AQSH	0,1	6,8	-	68,0 b	18	9
Ukraina	5,0	5,7	4,2 b	114,0	9	10
Latviya	11,9	3,9	3,3 b	32,8	4	11
Belgiya	2,1	3,6	7,0 b	171,4	12	12
Litva	0,8	2,7	2,7 b	3,4 b	13	13
Belarus	7,2	2,1	3,3 b	29,2	8	14
Pol'sha	0,2	1,6	2,0 b	8,0 b	16	15
Niderlandiya	0,1	1,4	100,0	14,0 b	17	16
Arab amirligi	0,2	1,4	50,0	7,0 b	15	17
Fransiya	0,4	0,9	4,0 b	2,3 b	14	18
Argentina	-	0,8	-	-	19	19


**MDH va Boshqa xorijiy davlatlarning tovar
va xizmatlar importidagi hajmi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)**

(mln. AQSH dollarri)



**Viloyat importida asosiy hamkor
davlatlarning ulushi , %**

(yanvar-iyun)



2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 64 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 400,9 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 83,0 %ini tashkil qiladi.

Qurilish materiallari importi tarkibi

Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga viloyatimizda olib borilayotgan buniyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagি qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

2019 yilning yanvar- iyun oylari mobaynida 185,5 mln. AQSH dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan 174,0 % ga o`sib, umumiy import hajmining 38,4 %ini tashkil qildi. Import qilingan Qurilish materiallari tarkibidan Sement (0,2 %), Yog` och va yog` och mahsulotlari (3,3 %), hamda shisha va shisha buyumlar (1,1 %) asosiy ulushni egallagan.

Qurilish materiallari importi tarkibi (2019 yil yanvar-iyun holatiga)



Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqlar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-83-22**